

NOGIRONLIGI BOR SHAXSLAR BILAN IJTIMOIY ISHNING ZAMONAVIY
YONDASHUVLARI

Ahmadjonova Hidoyat

FarDU talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15277016>

Annotatsiya. Mazkur maqolada nogironlar bilan ijtimoiy ish olib borishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Unda nogironlarning ijtimoiy muhitga moslashuvi, reabilitatsiya jarayonlari, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ijtimoiy xizmatlar faoliyati o'rganiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy ishda qo'llanilayotgan innovatsion metodlar, xalqaro tajribalar va O'zbekiston sharoitida ularning amaliy tatbiqi yoritilgan. Muallif nogironlarga nisbatan inklyuziv yondashuvni kuchaytirish, ularni jamiyatga to'liq qo'shish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ilgari suradi. Maqola ijtimoiy ish mutaxassislari, tadqiqotchilar va ijtimoiy siyosat yurituvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslar ijtimoiy tenglik va inklyuzivlik tamoyillariga asoslangan holda qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'lgan muhim ijtimoiy guruhlardan biridir. Ularning to'laqonli hayot kechirishi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va jamiyatda faol ishtirok etishi ko'p jihatdan ijtimoiy ish tizimining samaradorligiga bog'liq. Shu sababli nogironlar bilan olib boriladigan ijtimoiy ish faoliyatida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, innovatsion metodlardan foydalanish va individual ehtiyojlarga mos xizmatlar ko'rsatish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Asosiy qism: Nogironlik, invalidlik — kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma'lum muddat mehnat qobiliyatini yo'qotish. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi.

Nogironligi bor shaxslar bilan ishslash bugungi kunda ijtimoiy ish sohasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda bunday insonlarga nisbatan hurmat, e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish – nafaqat ijtimoiy siyosatning, balki diniy-axloqiy qadriyatlarning ham ajralmas bir qismidir. Ayniqsa, islom dini nogironlikni Allohning sinovi deb baholab, bunday insonlarga mehr-muhabbat ko'rsatishni ulug' fazilat sifatida ko'rsatadi.

Islom dini va nogironlik tushunchasi

Islomda har bir inson Allohning yaratgan mukarram mavjudoti sifatida qadrli hisoblanadi. Qur'oni karimda insonning tashqi ko'rinishi yoki jismoniy imkoniyatlari emas, balki uning taqvosi va solih amallari asosiy mezon qilib olingan:

"Albatta, sizlarning Alloh huzuridagi eng yaxshilaringiz – eng taqvodorlaringizdir" (Hujurot surasi, 13-oyat).

Bu oyat nogironligi bor insonlarni jamiyatda kamsitmasdan, aksincha, ularni qadrlash, ularga yordam qo‘lini cho‘zish lozimligini anglatadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotiy misollarida ham nogironlarga nisbatan rahm-shafqat, g‘amxo‘rlik va hurmatning eng yuksak namunalarini ko‘ramiz. Ibn Umm Maktum – ko‘zi ojiz sahobaning muazzinlik va hatto muvaqqat (imom o‘rnini bosuvchi) vazifasini bajargani buning yaqqol isbotidir.¹

Zamonaviy ijtimoiy yondashuvlar

Hozirgi ijtimoiy ish amaliyotida nogironligi bor shaxslar bilan ishlashda bir qator zamonaviy yondashuvlar shakllangan:

1. Inson huquqlariga asoslangan yondashuv – har bir nogiron insonning teng huquqli fuqarolik maqomini tan olish va jamiyatga to‘liq integratsiya qilish.
2. Inklyuziv yondashuv – ta’lim, mehnat va ijtimoiy hayotda nogironlar uchun mos muhit yaratish, ularni jamiyatga jalb etish.
3. Individga yo‘naltirilgan yondashuv – nogiron shaxsning ehtiyojlari, salohiyati va imkoniyatlariga qarab individual rejalashtirilgan xizmat ko‘rsatish.²

Bu yondashuvlar diniy tamoyillar bilan uyg‘unlashganda, nafaqat professionallik, balki ma’naviy yuksaklik ham namoyon bo‘ladi. Nogironlarga bo‘lgan hurmat, sabr-toqat va xizmat ko‘rsatish – musulmon insonning qalbidan joy olgan eng ulug‘ fazilatlardan biridir.

Nogironlik pensiyalari qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga, shuningdek Chernobil AESdagi avariya tufayli mayib bo‘lish yoki kasallik oqibatida III guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar deb topilgan shaxslarga tayinlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari (TIEK) tomonidan aniqlanadi.

Nogironlik pensiyasi TIEK tomonidan I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar deb topilgan, sug‘urta qilingan xodimlarga:

mehnatda mayib bo‘lganligi yoki kasb kasalligiga chalinganligi tufayli — mehnat faoliyatining muddatidan qat‘i nazar;boshqa sabablar tufayli — muddati sug‘urta qilingan xodimning nogironlik ro‘y bergen vaqtdagi yoshiga bog‘liq tegishli umumiy mehnat stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi. Pensiya tayinlash haqida murojaat qilish;

¹ Hadislар majmuasi. Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari asosida. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.

² Xamidova N. “Nogironlar bilan ijtimoiy ish asoslari”. – Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2019.

Pensiya tayinlash masalalari bo'yicha yashash joyidagi Pensiya jamg'armasining bo'limlariga:

ishlayotganlar tashkilot ma'muriyati orqali;

dehqon xo'jaliklari a'zolari, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar ariza bilan murojaat qiladilar;

ishlamaydigan fuqarolar arizani mustaqil o'zлari yashash joyidagi Pensiya jamg'armasi bo'limiga beradilar.

Pensiya tayinlashda taqdim etiladigan hujjatlar

Nogironlik pensiyasini tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak:

ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;

ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnomasi.

Zarurat bo'lgan hollarda boshqa hujjatlar ham talab etilishi mumkin.

Nogironlik pensiyasini tayinlash muddatlari

pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab 60 kungacha murojaat qilinsa – TMEK tomonidan nogironlik belgilangan kundan boshlab; 60 kunlik murojaat qilish muddati o'tkazib yuborilgan xollarda murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalari TMEK tomonidan belgilangan butun nogironlik davri uchun tayinlanadi.

60 yoshdan oshgan erkak va 55 yoshdan oshgan ayollarga nogironlik pensiyalari umrbod tayinlanadi. Ana shu nogironlarni qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish faqat ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi

Nogironlik pensiyasini olish huquqini beradigan ish staji

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar, tayinlanadi.

Xulosa: Nogironligi bor shaxslar bilan ijtimoiy ishslash – bu nafaqat kasbiy, balki insoniy va ma'naviy mas'uliyat hamdir. Zamonaviy yondashuvlar inson huquqlari, inklyuzivlik va individga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatishni nazarda tutgan bo'lsa, islom dini bunday insonlarga mehr-shafqat, hurmat va adolat bilan muomala qilishni buyuradi. Diniy va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligi nogironligi bor insonlarning hayot sifatini oshirishda, ularni jamiyatga to'liq qo'shishda muhim o'rinni tutadi. Shu bois, ijtimoiy ishchilar o'z faoliyatida nafaqat professional yondashuvlarga, balki diniy-axloqiy qadriyatlarga ham tayansa, bu ish yanada samarali, barakali va insoniy bo'ladi.

Foydalanimilgan adabiyotlar:

1. Hadislar majmuasi. Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari asosida. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Abdukarimov A. va boshqalar. “Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
4. Xamidova N. “Nogironlar bilan ijtimoiy ish asoslari”. – Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2019.
5. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). “World Report on Disability”. – 2011.
6. www.ijtimoiyhimoja.uz – O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi rasmiy sayti.
7. www.islom.uz – Islom dini asoslari va ma’naviy tarbiya bo‘yicha maqolalar.